

**Hujjat 22.02.2021 sanasi holatiga****O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR  
MAHKAMASINING  
QARORI****BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HAMDA  
BUXORO OZIQ-OVQAT VA YENGIL SANOAT  
TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDA  
IQTIDORLI BOLALAR UCHUN  
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB-  
INTERNATLAR BAZASIDA AKADEMIK  
LITSEYLAR TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDA**

Buxoro viloyati yoshlarining sifatli, chuqurlashtirilgan, kasbiy yo‘naltirilgan ta‘lim olishga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Buxoro viloyati hokimligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi hamda Xalq ta‘limi vazirligining 2009/2010 o‘quv yilidan boshlab:

Buxoro davlat universiteti huzurida — Qorako‘l tumanidagi 1-son iqtidorli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat bazasida;

Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiya instituti huzurida — Qorovulbozor tumanidagi 8-son iqtidorli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat bazasida akademik litseylar tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Davlat mulki qo‘mitasi va Buxoro viloyati hokimligi bir oy muddatda ularning bazasida akademik litseylar tashkil etilayotgan iqtidorli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning bino va inshootlari, moddiy-texnika vositalari, o‘quv uskunalari va boshqa mol-mulki belgilangan tartibda tekin asosda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi balansiga berilishini ta‘minlasinlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi:

akademik litseylar yuqori malakali pedagog kadrlar bilan butlanishini ta‘minlasin;

akademik litseylar o‘qituvchilar tarkibining belgilangan tartibda malakasi oshirilishi va ularning qayta tayyorlanishini tashkil etsin;

**Joriy versiya****O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR  
MAHKAMASINING  
QARORI****BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HAMDA  
BUXORO OZIQ-OVQAT VA YENGIL SANOAT  
TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDA  
IQTIDORLI BOLALAR UCHUN  
IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB-  
INTERNATLAR BAZASIDA AKADEMIK  
LITSEYLAR TASHKIL ETISH TO‘G‘RISIDA**

Buxoro viloyati yoshlarining sifatli, chuqurlashtirilgan, kasbiy yo‘naltirilgan ta‘lim olishga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Buxoro viloyati hokimligi, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi hamda Xalq ta‘limi vazirligining 2009/2010 o‘quv yilidan boshlab:

Buxoro davlat universiteti huzurida — Qorako‘l tumanidagi 1-son iqtidorli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat bazasida;

Buxoro oziq-ovqat va yengil sanoat texnologiya instituti huzurida — Qorovulbozor tumanidagi 8-son iqtidorli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat bazasida akademik litseylar tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Davlat mulki qo‘mitasi va Buxoro viloyati hokimligi bir oy muddatda ularning bazasida akademik litseylar tashkil etilayotgan iqtidorli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarning bino va inshootlari, moddiy-texnika vositalari, o‘quv uskunalari va boshqa mol-mulki belgilangan tartibda tekin asosda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi balansiga berilishini ta‘minlasinlar.

3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi:

akademik litseylar yuqori malakali pedagog kadrlar bilan butlanishini ta‘minlasin;

akademik litseylar o‘qituvchilar tarkibining belgilangan tartibda malakasi oshirilishi va ularning qayta tayyorlanishini tashkil etsin;

akademik litseylarda ta'lim yo'nalishlari taqdimotlarini, shuningdek "Ochiq eshiklar kunlari"ni tashkil etsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ularning bazasida akademik litseylar tashkil etilayotgan iqtidorli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o'quvchilari yaqinda joylashgan boshqa umumta'lim maktablariga qayta taqsimlanishini ta'minlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2009-yil uchun tasdiqlangan Davlat budjeti parametrlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan tegishli o'zgartirishlar kiritsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari R.S.Qosimov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh.  
MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2009-yil 21-  
avgust,  
243-son

akademik litseylarda ta'lim yo'nalishlari taqdimotlarini, shuningdek "Ochiq eshiklar kunlari"ni tashkil etsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi ularning bazasida akademik litseylar tashkil etilayotgan iqtidorli bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o'quvchilari yaqinda joylashgan boshqa umumta'lim maktablariga qayta taqsimlanishini ta'minlasin.

5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2009-yil uchun tasdiqlangan Davlat budjeti parametrlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan tegishli o'zgartirishlar kiritsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari R.S.Qosimov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh.  
MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2009-yil 21-  
avgust,  
243-son